
TUMANIMIZNING JAVPAYa MASSIVIDA FARG'ONA VILOYaTI HOKIMI QARORI ASOSIDA KOMPLEKS O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOM ETMOQDA



TUMANIMIZNING JAVPAYa MASSIVIDA FARG'ONA VILOYaTI HOKIMI QARORI ASOSIDA KOMPLEKS O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOM ETMOQDA

2022 yil 20 yanvar'dagi 18-11-0-Q/22-sonli qarorda qo'yidagilar keltirilgan:

Kompleks o'quv mashqining asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilansin:

tuman boshqaruv organlari va FVDqT xizmatlari boshliqlari hamda tegishli korxonalar, tashkilot rahbarlarini fuqaro muhofazasi sohasidagi bilim ko'nikmalarini oshirish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish rejalarini amaliy sinovdan o'tkazish;

tuman FVDqT xizmatlariga yuklatilgan vazifalarni bajarilishining tayyorgarlik darajalarini aniqlash;

So'x tumani Qal'acha MFY Javpaya massivida mavjud sel yo'llarining qirg'oqlarni mustahkamlash (damba qurish) ishlarini amalga oshirish.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-01-28 17:14:20